

NUTQIY TA'SIRCHANLIKNI OSHIRISHDA ANAFORIK VA EPIFORIK
TAKRORLARNING O'RNI.
(ERKIN A'ZAM ASARLARI MISOLIDA)

Namozova Mohichehra Rustamovna,

Termiz davlat universiteti

3-bosqich tayanch doktoranti

G-mail: mohichehrarustamovna93@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnda nutqiy ta'sirchanlik, emotsionallik va ekspressivlikni oshirishda sintaktik, stilistik vositalar anafora va epiforaning ahamiyati tadqiq etilgan. Badiiy nasrda, xususan, Erkin A'zam asarlari tili va uslubi misolida, qahramonlar ruhiy holati hamda takrorlarning estetik va pragmatik vazifalari ochib berilgan. Tahlillar natijasida anaforik va epiforik takrorlar nafaqat matnning strukturaviy shakllantirishi, balki o'quvchi e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etuvchi kuchli lingvostilistik vosita ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: nutqiy ta'sirchanlik, stilistik takror, anafora, epifora, badiiy nasr, ekspressivlik, pragmatik vazifa, lingvostilistika.

Аннотация. В данной статье исследуется значение синтаксических стилистических средств анафоры и эпифоры в повышении речевой выразительности, эмоциональности и экспрессивности художественного текста. На примере художественной прозы, в частности языка и стиля произведений Эркина Азема, раскрываются эстетические и прагматические функции повторов в передаче психологического состояния героев и авторского замысла. В результате анализа обосновывается, что анафорические и эпифорические повторы не только формируют ритмико-интонационную основу текста, но и служат мощным лингвостилистическим средством, привлекающим внимание читателя к ключевой идее.

Ключевые слова: речевая выразительность, стилистический повтор, анафора, эпифора, художественная проза, экспрессивность, прагматическая функция, лингвостилистика.

Abstract. This article explores the significance of syntactic stylistic devices anaphora and epiphora in enhancing the effectiveness, emotionality, and expressiveness of a literary text. Drawing on literary prose, particularly the language and style of Erkin A'zam's works, the aesthetic and pragmatic functions of repetitions in conveying the psychological state of the characters and the author's intent are revealed. Based on the analysis, it is substantiated that anaphoric and epiphoric repetitions not only form the rhythmic and intonational foundation of the text but also serve as a powerful linguo-stylistic tool that draws the reader's attention to the core idea.

Keywords: speech effectiveness, stylistic repetition, anaphora, epiphora, literary prose, expressiveness, pragmatic function, linguo-stylistics.

Kirish. Bugungi zamonaviy tilshunoslik an'anaviy tilshunoslikdan tubdan farq qiladi. Zamonaviy yo'nalishlarda til va inson, til va ong, psixologiya bilan tutashgan nuqtasida vujudga kelgan yangi tushunchalar olimlar diqqat markazida bo'lib turibdi. Takrorning lingvistik va stilistik funksiyalari ham dunyo, ham o'zbek tilshunosligida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'rganilishi tildagi ifoda vositalarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Takror (reduplikatsiya) dunyo tillarida keng tarqalgan lingvistik hodisa bo'lib, u turli tillarda har xil grammatik, leksik va uslubiy maqsadlarda qo'llaniladi. Tilshunoslikda takrorning o'rganilishi bir nechta yo'nalishda olib boriladi: fonologik, morfologik, semantik va pragmatik tahlillar. Takror nafaqat leksik birliklarni qaytarish, balki ma'no kuchaytirish, tuzilish murakkabligini yengillashtirish yoki jarayonlarni

uzaytirish maqsadida ishlatiladi. Takror soʻzlarga qiziqish juda qadim davrlarga borib taqaladi. Tadqiqotlardan maʼlumki, reduplikatsiya hodisasiga olimlar til muammolariga eʼtibor bera boshlagan paytdan buyon qiziqish bildirganlar. Yunon, lotin, sanskrit va qadimgi german tillarida koʻplab reduplikatsiya hodisalari kuzatilgan. Reduplikatsiya hodisasi periferik hodisa sifatida qaralgan. “Takroriy soʻz”, “takroriy shakl” tushunchalari tilshunoslikda reduplikatsiya nomi bilan atalib, lotincha reduplicatio- ikkilanish, qoʻshaloqlanish maʼnosini bildiradi va tilda soʻzlarning dastlabki boʻgʻinini, oʻzakni yoki soʻzning butun qismini takrorlashdagi fonomorfologik hodisa hisoblanadi. [1.128] Tilshunoslikda takror soʻz, soʻz birikmasi yoki gapning qayta ishlatilish hodisasidir. U asosan quyidagi maqsadlarda qoʻllaniladi:

1. Maʼno kuchaytirish: Mazmuni yanada urgʻuliroq qilish uchun.
2. Tuzilma uygʻunligi: Matnning stilistik yaxlitligini taʼminlash uchun.
3. Ritmik tuzilish: Sheʼriy asarlar va musiqiy matnlarda ritm yaratish uchun.
4. Emotsional taʼsir: Nutqdagi hissiy rang-baranglikni oshirish uchun.

Sintaktik-stilistik vositalardan biri boʻlgan takror hodisasi badiiy matnning strukturasi, nutqiy taʼsirchanlikni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek tili tizimida takror birliklar nafaqat leksik birliklarning shakliy va semantik imkoniyatlarini kengaytiradi, balki matnning mazmuniy tashkilida ham alohida rol oʻynaydi. Xususan, gap boshida qoʻllangan takrorlar nutqning ohangdorligini kuchaytirish, fikrni taʼkidlash, diqqatni muhim nuqtaga jalb etish kabi sintaktik va stilistik vazifalarni bajaradi. Bunday hodisa xalq ogʻzaki ijodida ham, badiiy adabiyotda ham, publitsistik nutqda ham keng uchraydi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda takror hodisasi koʻplab ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida boʻlib kelmoqda. Chunonchi, oʻzbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, S. Karimov, A. Madvaliyev singari olimlar takrorning leksik-semantik, sintaktik va stilistik xususiyatlarini turli qirralarda yoritib berganlar [2.232]. Jahon tilshunosligida esa V. Vinogradov, Lotman, J. Leech, M. Halliday [3.384] kabi tadqiqotchilar takrorning badiiy matn poetikasining markaziy vositalaridan biri sifatida baholaganlar. Gap boshida kelgan takror, avvalo, tema-rema munosabatida vazifasini bajaradi. Yaʼni, takror birligi gapning boshida kelib, keyingi bayonning mazmuniy yoʻnalishini belgilab beradi. Olim N. Mahmudov qayd etganidek, “takrorlar gap strukturasi mazmuniy markerni yaratadi va fikrning logik ketma-ketligini kuchaytiradi”. Masalan: asta-asta ular orzulariga yaqinlashib boradi. Bu yerda takror gap boshida kelib, voqeaning ohista sodir boʻlishini belgilovchi markaziy mazmuni oldindan koʻrsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda zamonaviy tilshunoslikning anʼanaviy hamda yangi yoʻnalishlariga oid metodologiyalardan foydalanildi. Tadqiqotning manbasi sifatida taniqli yozuvchi Erkin Aʼzamning nasriy asarlari (qissa va hikoyalari) tanlab olindi. Badiiy matn tarkibidagi anaforik va epiforik takrorlarning lingvopoetik va pragmatik xususiyatlarini ochib berishda, badiiy asarlar

matnidan anafora va epifora qatnashgan nutqiy birliklarni ajratib olish, ularning sintaktik tuzilishi va yasaliş xususiyatlarini izchil hamda tizimli tasvirlash maqsadida tavsifiy (deskriptiv) metod qoʻllanildi. Anaforik va epiforik takrorlarning muayyan badiiy matn doirasida bajarayotgan vazifalari, qahramonning ruhiy-psixologik holati hamda nutqiy vaziyatga mos ravishda qanday estetik va ekspressiv yuk tashiyotganini yoritib berishga kontekstual tahlil metodidan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Erkin Aʼzam asarlarida gap boshida takror ishlatilishi bilan nutqqa psixologik bosim olib kiradi, qahramonning kechinmalari bevosita til orqali aks etadi. Bunday takrorlar soʻz shaklining aynan takrorlanishi orqali kuchli hissiy rang beradi. Masalan: “Pakananing oshiq koʻngli qissasidagi “Yoʻq–yoʻq, boshini yerdan koʻtargani yoʻq misolini olaylik. Bu yerda “yoʻq–yoʻq” takrori inkor shaklidagi keskinlikni, ruhiy ogʻriq va pushaymonlikni ifodalaydi. Qahramon oʻz holatini mantiqan emas, balki emotsional portlash orqali tasdiqlaydi. Shu jihatdan takror koʻngil qarama-qarshiligini badiiy tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Yoʻq, sovuqdan emas, yoʻq, alamdanda emas, yoʻq, til-zabonsizlikdan emas, yoʻq, mayibu-mubtalolikdan emas, yoʻ–oʻq! Bu misolda takror nafaqat soʻzning takrorlanishi, balki intonatsion gradatsiya – kuchaytiruvchi ohang bilan uygʻunlashadi. Har bir “yoʻq” soʻzi oʻzining semantik kuchini oshirib boradi, oxirida esa “yoʻ–oʻq!” degan choʻqqiga chiqadi. Bunday struktura ritmik-emotsional choʻqqilanish hosil qiladi va qahramonning ichki noroziligini dramatik kuchda yetkazadi. Gap boshidagi takrorlar baʼzan sintaktik parallelizm bilan uygʻunlashadi. Misol: Koʻngil – podsho. Koʻngil – xazina. Koʻngil – balo. Bu misolda har bir gap bir xil sintaktik qurilishda, lekin turlicha semantik komponent bilan kelgan. “Koʻngil” soʻzi har safar yangi maʼno qirrasini ochadi. Takror shu tariqa semantik xilma-xillik yaratadi: birinchi gapda “koʻngil” ulugʻlikni (“podsho”), keyingisida ichki boylikni (“xazina”), uchinchisida esa fojiani (“balo”) bildiradi. Matnda koʻngil soʻzining ketma-ket takrorlanishi leksik takrorning eng aniq koʻrinishidir. Bu takror markaziy semantik birlikni inson ruhiyatini, ichki olamini, his va kechinmalarini diqqat markaziga olib chiqadi. Har bir takrorda koʻngil yangi semantik qirra bilan ochiladi: koʻngil podsho — hukmronlik, ustunlik, insonni boshqaruvchi ichki kuch ; koʻngil xazina — ruhiy boylik, qadriyat, his-tuygʻularning bebaho manbai; koʻngil balo esa — his-tuygʻularning azob, dard, sinovga aylanishini ifodalaydi. Shu tariqa muallif bir soʻzning uch xil semantik maydonini metaforik parallelizm orqali ifodalaydi va koʻngilning ziddiyatli, kuchli tabiatini ochib beradi. Bosh soʻzning ketma-ket takrorlanishida bogʻlovchilar ishlatilmaydi, bu esa oʻquvchi diqqatini kuchli emotsional taʼsir ostida ushlab turadi. Sintaktik jihatdan bu predikatsiya shaklida, feʼl ishlatilmasdan berilgan. Bu holatda har bir soʻz oʻzida predikativ kuchga ega boʻlib, koʻngilning mohiyatini qisqa, lekin taʼsirli metaforalarda mujassamlashtiradi. Fonetik jihatdan ham uygʻunlik mavjud: “koʻngil–podsho” birikmasida yumshoq va qattiq undoshlarning almashuvi salobatli ohang hosil qiladi; “koʻngil–xazina”dagi x va z tovushlari boylik va jilolanish semasini tovush orqali

sezdiradi; “ko‘ngil–balo”dagi b va l tovushlari esa keskinlik va zarba hissini beradi. Bu tovushlar semantik ohangni to‘ldiruvchi fonosemantik qatlamni yuzaga keltiradi. Mazkur parcha pragmatik jihatdan ham chuqur ma‘noga ega: muallif insonning tashqi ko‘rinishidan farqli ichki olamini ochib, “ko‘ngil”ni hayotiy jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etadi. U bir paytning o‘zida hukmron ham, bebaho ham, azob manbai hamdir. Shunday qilib, takror hodisasi bu misolda faqat stilistik bezak emas, balki semantik og‘irlik markazini tashkil etuvchi badiiy mexanizmga aylanadi. Ushbu tahlil ko‘rsatadiki, Erkin A‘zam leksik takror orqali nafaqat so‘z musiqasini, balki inson ruhiyatining ziddiyatli va ko‘p qirrali manzarasini badiiy tilda yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Erkin A‘zam asarlaridagi takror so‘zlar shunchaki qaytariqlar bo‘libgina qolmay, yozuvchi tomonidan topilgan nafis badiiy topilmalar deyish mumkin. Har bir asardagi takrorlar albatta psixologik holat, ichki ruhiyat va tilimizning imkoniyatlarini juda cheksiz ekanini ko‘rsatib boraveradi. Gap yoki matn tarkibidagi sintaktik qurilmalarning, frazalarning aynan o‘rta qismida muayyan bir so‘z yoki so‘z birikmasining izchil qaytarilib kelishi tilshunoslikda mesodiplozis yoki ichki takrorlar deb yuritiladi. Badiiy matn yoki nutqiy parcha yakunida ayni bir so‘z, birikma yoki qo‘shimchani aynan takrorlanib kelishi (epifora) matn lingvistikasida “semantik jamlanma” (смысловой фокус) hosil qiluvchi hodisa sifatida talqin etiladi. “Epifora - badiiy til vositalaridan biri bo‘lgan takror ko‘rinishlaridan biri, she‘riy asarda so‘zlar yoki misralar oxirida ayrim unli yoki undosh tovushlarning takrorlanib kelishi”, deb qayd etilgan. O.Axmanovning talqiniga ko‘ra, epifora nutq figuralaridan biri bo‘lib, so‘z yoki so‘z birikmasi bir yoki bir necha fraza oxirida keladi va she‘riy nutqning ifodaviyligini kuchaytiradi. [4.528] A.Haydarov epiforani fonostilistik vositalardan biri sifatida talqin qilgan.[5.355] U.To‘ychiyev esa epiforaga quyidagicha ta‘rif beradi: “Qofiyasiz misralar oxirida takrorlangan holda kelib, bayt yoki bandlarni uyushtiruvchi va ular oxirini eslatuvchi, bu bilan ritmik vazifani ham bajaruvchi, ifodalilik, xushohanglik va musiqiylikni orttiruvchi, biron tushuncha yo fikrni ajratib, ta‘kidlab ko‘rsatuvchi so‘z va so‘zlar oxirgi so‘z takrori (epifora) deyiladi”.[6.97]

Epiforik takror qo‘llanilgan strukturada axborot va matn mazmunining eng yuqori darajasi gap yoki satr oxiriga to‘g‘ri keladi. Dissertatsiyamizning obyekti bo‘lgan Erkin A‘zam asarlaridagi takror so‘zlar matndagi joylashuv o‘rniga qarab ham ma‘lum maqsad, vazifani bajaradi, tilimizning ichki imkoniyatlarini ochib beradi. Masalan, “Yurganda jussasiga yarasha pildirabgina yurmay, salmoq bilan, butini yirtgudek **yirik –yirik** qadam tashlar, gapirganda **mavrid-bemavrid** so‘lish olib, salmoq bilan, ta‘sirchanlikka intilibmi yoki diqqatni tortish uchunmi, xuddi maxfiy bir sinoatni ochayotgandek pichirlab gapirar edi” asardan olingan parchada gap o‘rtasida qo‘llanilgan takrorda muallif avval “jussasiga yarasha pildirabgina yurmay” predikati orqali qahramonning tabiiy holatidan qochishini ko‘rsatadi. Bu yerdagi “-gina” modalligi va “pildirash” fe‘li qahramon tabiatidagi asl

kichiklikni, maydalikni ifodalaydi va unga zid holda “butini yirtgudek yirik-yirik qadam tashlar” hamda “maxfiy bir sinoatni ochayotgandek pichirlab gapirar” birikmalari qahramonning o‘zini ataylab katta, sirli va salmoqli ko‘rsatishga urinayotganidan dalolat beradi. Bu yerda “yirik-yirik” takror so‘zi shunchaki kattalik ma’nosini emas, balki qahramon ichki dunyosidagi “g‘o‘ddayish” va sun‘iylik ma’nosini bildirib keladi.

Xulosa. Badiiy matnda nutqiy ta’sirchanlikni oshirishda anaforik va epiforik takrorlar muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy badiiy nasrda, xususan, Erkin A‘zam asarlarida kuzatilganidek, bu turdagi takrorlar qahramonlar ruhiyatidagi murakkab kechinmalarni, ichki ziddiyatlar va hayajonni ta’sirchan yoritib berishda o‘ziga xos vazifa o‘taydi. Anaforik va epiforik takrorlar nasriy matnning qurilish sintaksizda, asarning kompozitsion butunligini saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur uslubiy figuralar orqali pafos va mantiqiy urg‘u kerakli o‘rinlarga yo‘naltirilib, o‘quvchi e’tibori matndagi tayanch g‘oyaga qaratiladi. Umuman olganda, o‘zbek badiiy nasrida anafora va epiforaning maqsadli qo‘llanishi asar tilining jozibadorligini ta’minlaydi, kitobxonni voqealar rivojini butun borlig‘i bilan his qilishiga zamin yaratadi va adibning individual uslubini belgilovchi yetakchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. -Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - B.128
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy sintaksisi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 232 b.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, fonetika, fonologiya, orfoepiya, grafika, orfografiya). – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy sintaksisi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 232 b.
6. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992. – 140 b.
7. Madvaliyev A. O‘zbek tili terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 384 b.
8. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Изд-во 1963. – 255 с.
9. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.
10. Leech G., Short M. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – London: Longman, 1981. – 402 p.
11. Ҳотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳди луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1979. - Б. 355.
12. Ҳайдаров А. Бадий матннинг фоностилистик воситалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т.,2008-Б. 11.
13. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. - Т.: Янги аср авлоди, 2011. - Б. 97.
14. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p.